

3. Qodirov, R. H. (2018). Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiyani tashkil etish. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
4. Karimova, M. S. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
5. To‘rayev, O. R. (2017). Jismoniy tarbiya va sport metodikasi. Toshkent: Sport nashriyoti.
6. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (WHO). (2020). Bolalarda jismoniy faollik va salomatlik.
7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. (2021). Boshlang‘ich ta‘lim davlat standarti. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.

ADABIY TIL MUAMMOLARI YOXUD O‘QUVCHILAR NUTQIDAGI AYRIM KAMCHILIKLAR

Sayfiyeva Mahliyo Faxriddin qizi

Qashqadaryo viloyati, Koson tumani

5-sonli maktabning O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Til – millat ko‘zgusi. Har bir millatning buguni va ertasini belgilaydigan omil bu, albatta tildir. Binobarin, bugungi kunda til doirasida olib borilayotgan ishlar anchagina salmoqli-ki, bu kabi amaliy va nazariy ishlar o‘rib kelayotgan yosh avlodning nutqidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki o‘z tilini mukammal bilmagan yoki o‘z tilida ravon gapira olmagan har bir inson vaqti kelib jamiyatning lisoniy muammosiga aylanishi tabiiydir. Mustaqillik yillarida ona tilimiz, ya‘ni o‘zbek tiliga berilayotgan keng imkoniyatlar, hattoki jahon sahnalarida o‘zbek tilida baralla nutq so‘zlanishi ham tilimizning haqiqiy qadr-qimmatini yanada oshirdi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Binobarin, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning farmoni bilan 2020-2030 - yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonida 2025-yil 1-yanvardan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ona tili va adabiyot fani doirasida tegishli sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50% miqdorida har oylik qo‘shimcha to‘lanishi belgilandi. Bu kabi amaliy ishlar o‘zbek tilining rivoji uchun katta qadam bo‘lishi shubhasiz.

Bugungi kunda barcha ta‘lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga unlilar va undoshlar talaffuzi, yozilishi hamda o‘qilishi kabi ona

tilining ilk fonetik tushunchalari o‘rgatiladi. 1-sinflarda o‘qitiladigan “**Alifbe**” kitobida dastlab unlilar, so‘ngra undoshlar navbatma-navbat tanishtirib boriladi. Biroq kuzatishlarimiz jarayonida shunga guvoh bo‘ldik-ki, yurtimizning ayrim hudud va tumanlarida unlilarning noto‘g‘ri talaffuz etilishi hamon uchramoqda. Jumladan, boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilarida **Ee** va **Ii** harflarining farqsiz qo‘llanilishi, **O‘o‘** va **Oo** tovushlarining so‘zlarda noto‘g‘ri ishlatilishi kabi artikulatsion hamda fonetik xatoliklar borligi tilning og‘riqli nuqtalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunonchi, **Ee** harfining “**e‘lon, elak, elektr, e‘tibor, elat**” kabi so‘zlarda o‘rta keng, lablanmagan, qisqa **Ee** tovushi ekanligi, **Ii** harfining esa “**iboli, ibora, ibrat, idora, Ilhom, Islom**” kabi so‘zlarda yuqori tor, lablanmagan, cho‘ziq **Ii** tovushi ekanligi noto‘g‘ri o‘rgatib kelinmoqda. Qolaversa, ayrim unlilarning talaffuzi va imlosi haqidagi mavzuga ko‘ra **Ii** tovushi talaffuzda tushib qolishi mumkin bo‘lgan keltirib o‘tilgan: **bilan – blan, bilim – blim** va h.k. Lekin nafaqat bu so‘zlarda balki boshqa so‘zlarda ham **Ii** tovushining ham yozuvda, ham talaffuzda tushib qolishi kabi imloviy xatolar doimiy ravishda kuzatilmoqda: **qism-qsm, bir-br, har xil-har xl, tilak-tlak...** Bundan tashqari, millati tojik bo‘lgan o‘zbek tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilar nutqida **O‘o‘** va **Oo** tovushlarining yozuvda ham, og‘zaki nutqda ham almashinib qo‘llanishi ularda adabiy til me‘yorlarining to‘g‘ri shakllanishida to‘siq bo‘lmoqda. Masalan, “**yo‘q, yo‘qol, yo‘qotmoq, o‘t, o‘tmoq**” kabi so‘zlarda o‘rta keng, lablangan, orqa qator unli tovushi **O‘o‘** o‘rniga **Oo** tovushining, “**yoq, yoqmoq, yog**” kabi so‘zlarda esa quyi keng, lablangan, orqa qator unli tovushi **Oo** o‘rniga **O‘o‘** tovushining xato qo‘llanishi hali hamon o‘zgarishsiz qolmoqda. Masalan: *Nargizaning sumkasida yangi daftar yoq. (Aslida: yoq so‘zining o‘rnida yo‘q so‘zi bo‘lishi kerak edi).* Aynan shunday nutqiy kamchiliklar Koson, Dehqonobod, Muborak, Chiroqchi, Qamashi kabi tumanlarda ko‘plab uchraydi. Bu esa o‘quvchilarda noto‘g‘ri nutq shakllanishiga sabab bo‘ladi. Bunday nuqtaiy kamchiliklarning asosiy sababi sifatida quyidagilarni aytilish mumkin:

- a) Bog‘cha yoshidagi bolalarga harflarning talaffuzi yuzasidan dastlabki tushunchalarning berilmasligi va o‘rgatilmasligi;
- b) Bog‘cha yoshidagi bolalarga ko‘proq adabiy til me‘yorlariga rioya qilingan holda so‘zlanmasligi, erkin so‘zlashuvning haddan ortiq qo‘llanilishi;
- c) Ularga kundalik sheva nutqidan foydalanmaslik kerakligini o‘rgatilmasligi;
- d) Maktab yoshidagi bolalarning boshlang‘ich sinfdagi ilk fonetik bilimlarining turlicha tushuntirilishi;
- e) Boshlang‘ich sinflarda sheva va so‘zlashuv nutqidan voz kechilmasligi;
- f) Yuqori sinflarda ham adabiy til me‘yorlariga rioya qilingan holda darslar olib borilmasligi;

g) O‘quvchilarga shevadagi so‘zlar o‘rniga aynan shu so‘zning adabiy tildagi muqobilining o‘rgatilmashligi.

Jumladan, fe‘l so‘z turkumi doirasida qo‘llaniladigan **borar edi, qilar edi, o‘qir edi** kabi fe‘llarning “**borasdi, qilasdi, o‘qasdi**” ko‘rinishida talaffuz qilinishi va yozilishi adabiy til me‘yori talablariga mutlaqo javob bermaydi. Bu esa o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflardan o‘qish sheva so‘zlashuv doirasidan chiqmaganligini va adabiy til qonun-qoidalarining to‘g‘ri o‘rgatilmaganligini ko‘rsatadi. Bu kabi kim uchundir “ahamiyatsiz” tuyulgan tilshunoslikning o‘ziga borayotgan muammolarini hal etish bugungi kun amaliy hamda nazariy tilshunosligining asosiy vazifasidir.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish joizki, zamonaviy tilshunoslikning shakllanib hozirgi bosqichga yetishi uchun ko‘plab yo‘llar bosib o‘tilgan va bu bosqichlar davomida turli qarashlar, fikrlar, yangilanishlar yuzaga kelgan. Biroq rivojlanayotgan bugungi jamiyatda adabiy tilga e‘tibor, uning rivoji uchun amaliy ishlar birmuncha susaygandek nazarimizda. Shunday ekan, bu kabi muammolarning oldini olish uchun quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir:

a) ona tili va adabiyoti fan o‘qituvchilari dars jarayonida shevada, so‘zlashuv tilida emas, balki adabiy tilda so‘zlashlari;

b) bolalar uchun e‘firoga uzatiladigan ko‘rsatuvlarda ham adabiy tilda gapirish;

c) o‘quvchilar uchun nafaqat maktabda, balki oilada ham so‘zlarning to‘liq talaffuz qilinishi va adabiy tilda ko‘proq so‘zlanishi;

d) darslarda adabiy tilda gapirish va darsning audio yozuvlari orqali mavzuni tushuntirish;

Bu kabi vazifalarning bajarilishi yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda yordam beradi deb o‘ylaymiz. Zero, tilga e‘tibor – kelajakka e‘tibor demakdir...

SUBJECT-PREDICATE AGREEMENT IN ENGLISH: RULES, EXCEPTIONS, AND LINGUISTIC ANALYSIS

Shirinboyeva Mashhura Sayfullo qizi

Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: *This article analyzes the concept of subject-verb agreement, which is one of the fundamental aspects of English grammar. The study examines various examples, highlights exceptions, and explains the semantic impact of subject-verb agreement in sentences.*